



UDK: 811.11

Nasibaxon PAZILOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti professori, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: nazilova304@gmail.com

O'zDJTU dotsenti N.Yuldasheva taqrizi asosida

MADANIYATLARARO MULOQOTDA OLMOSHLARNING FUNKSIONAL MOSLASHUVI: O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsiy olmoshlarning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi funksional moslashuvi tizimli va qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. O'zbek, rus va ingliz tillari materiallari asosida olmoshlarning semantik, pragmatik va sotsiokommunikativ xususiyatlari ko'rib chiqildi. Tadqiqotda olmoshlarning faqat grammatik vosita emas, balki madaniy, ijtimoiy va pragmatik ma'no yuklovchi lingvistik birlik sifatidagi o'rni aniqlandi. Natijalar til va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'simi ochib beradi hamda madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarning asosiy manbalarini ko'rsatadi. Maqola til o'qitish, tarjima amaliyoti va interkultural kompetensiyani rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: olmoshlar, madaniyatlararo kommunikatsiya, sotsiopragsmatika, sotsiolinguistika, til va madaniyat, o'zbek tili, rus tili, ingliz tili.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ МЕСТОИМЕНИЙ В УЗБЕКСКО-РУССКО-АНГЛИЙСКОЙ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация

Статья посвящена всестороннему анализу функциональной адаптации личных местоимений в межкультурной коммуникации на материале узбекского, русского и английского языков. Исследование направлено на выявление не только грамматических, но и социокультурных, прагматических и семантических особенностей местоимений в условиях языкового контакта. Показано, что местоимения выполняют ключевую роль в выражении социальной дистанции, вежливости, формальности и межличностных отношений. Полученные результаты раскрывают сложные механизмы взаимодействия языка и культуры и служат основой для развития межкультурной компетенции, методики преподавания и практики перевода.

Ключевые слова: местоимения, межкультурная коммуникация, прагматика, социолингвистика, язык и культура, узбекский язык, русский язык, английский язык.

PRONOUNS IN CULTURAL CONTACT: FUNCTIONAL ADAPTATION IN UZBEK–RUSSIAN–ENGLISH COMMUNICATION

Annotation

This article presents a comprehensive analysis of the functional adaptation of personal pronouns in intercultural communication based on Uzbek, Russian, and English languages. The study investigates how pronouns function beyond grammatical markers as crucial carriers of sociocultural, pragmatic, and interpersonal meanings. The analysis highlights that pronouns play a key role in expressing social distance, politeness, formality, and cultural norms. The findings reveal deep-rooted semantic and pragmatic differences in pronoun usage across these languages, directly affecting cross-cultural communication efficiency. The paper provides practical recommendations for language teaching, translation practices, and the development of intercultural competence.

Key words: pronouns, intercultural communication, sociopragmatics, sociolinguistics, language and culture, Uzbek language, Russian language, English language.

Kirish. Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosi tilshunoslik va pragmalingvistikaning yetuk namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan kontseptual yondashuvlarga tayangan. Xususan, Pol Brown va Stiven Levinson (2020) tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi (Politeness Theory) asos qilib olindi. Ularning nazariyasiga ko'ra,

muloqot jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, o'zaro hurmat, ijtimoiy masofa va sadoqat darajasi til vositalari, ayniqsa, kishilik olmoshlar orqali bevosita ifodalanadi (Brown & Levinson, 2020). Uchinchi shaxs olmoshlari, shuningdek, birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi

ijtimoiy rolda muhim semantik va pragmatik yuklamaga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Madaniyatlararo pragmatika sohasida Gudykunst va Kim tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo muloqot modeli ham ushbu tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur tahlil qilib, til vositasida madaniy identifikatsiya va sotsiopragmatik strategiyalar qanday aks etishini ko'rsatib bergan (Gudykunst & Kim, 2017). Ularning yondashuvida olmoshlarning muloqotdagi roli, ayniqsa, ijtimoiy masofa, daraja va hurmat munosabatlarini ifodalashdagi funksiyasi alohida ta'kidlanadi.

Johanson esa rus tilida kishilik olmoshlarining madaniy va pragmatik xususiyatlarini, ayniqsa, til kontaktlari sharoitida qanday o'zgarishini tahlil qilgan. U rus tilidagi uchinchi shaxs olmoshlarining jins va sotsial statusni ifodalashdagi roli, shuningdek, ular madaniy kontekstda qanday stilistik va pragmatik yuklama olishini batafsil ko'rsatgan (Johanson, 2020).

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – Karimova (2021) va Tursunov (2023) o'zbek va ingliz tillaridagi olmoshlardan foydalanishning sotsiopragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Xususan, Karimova o'z tadqiqotida o'zbek va ingliz tillaridagi ikkinchi shaxs olmoshlarining muloqotdagi ijtimoiy va sotsiokulturniy funktsiyalarini o'rganib, ularning hurmat va yaqinlik darajasini ifodalashdagi o'ziga xosliklarini aniqlagan (Karimova, 2021). Tursunov esa uchinchi shaxs olmoshlari asosida sotsiopragmatik strategiyalarni tahlil qilib, ular madaniyatlararo muloqotda qanday moslashishini o'rgangan (Tursunov, 2023).

Comrie (2013) tomonidan ilgari surilgan tipologik lingvistika nazariyasi ham ushbu tadqiqot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U pronounlarning universal grammatik va semantik xususiyatlarini tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilib, tillar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini tizimli ravishda ochib bergan (Comrie, 2013). Comrie, ayniqsa, kishilik olmoshlarining jins, son, inkluziv/ekskluziv farqlanishi va boshqa grammatik kategoriya bilan bog'liqligini mukammal tahlil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu nazariy manbalar asosida o'tkazilgan tadqiqot til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, shuningdek, uchinchi shaxs olmoshlarining semantik, grammatik va sotsiopragmatik funktsiyalarini tahlil qilishda mustahkam ilmiy asos yaratadi. Bu yondashuv nafaqat tilshunoslik doirasida, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va sotsiopragmatika sohasida ham dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-lingvistik va sotsiopragmatik metod asosiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi uchta til – o'zbek, rus va ingliz tillaridagi shaxs olmoshlarining, xususan, ikkinchi va uchinchi shaxs olmoshlarining semantik, funksional va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini taqqoslashdan iborat bo'ldi.

Tahlilda semantik tahlil, chastotaviy (frekvent) tahlil va kommunikativ-pragmatik tahlil usullari uyg'unlashtirildi (Brown & Levinson, 2020; Gudykunst & Kim, 2017).

Empirik material sifatida uchta tilga oid turli janrdagi har bir til uchun 50 tadan, jami 150 ta matn korpusi shakllantirildi. Matnlar turlicha kommunikativ kontekstlarni qamrab oldi:

Rasmiy nutq: diplomatik hujjatlar, xizmat yozishmalari, ruxsatnomalar, biznes muloqot yozuvlari.

Norasmiy nutq: kundalik og'zaki suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar yozishmalari, do'stona muloqot namunalariidan olingan matnlar.

Til birliklarining kontekstual qo'llanilishini tahlil qilish uchun zamonaviy korpus lingvistika vositalari – "AlphaLing" lingvistik tahlil dasturi va qo'lda kodlash (manual coding) usullari qo'llanildi. Dastur yordamida olmoshlarning chastotasi, ularning qo'llanish kontekstlari va sotsiopragmatik yuklamalari aniqlashtirildi.

Matnlar tahlilida quyidagi parametrlar asosida o'lovlar amalga oshirildi:

Olmoshlarning qo'llanish chastotasi;

Rasmiy va norasmiy kontekstlardagi funksional moslashuvi;

Semantik va sotsiopragmatik yuklamalari;

Madaniy tafovutlar va interkultural muammolar.

Bu metodologik yondashuv olmoshlarning nafaqat grammatik, balki sotsiokulturniy va kommunikativ funktsiyalarini ham chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar.

1. Olmoshlarning funksional moslashuvi

Olmoshlarning funksional moslashuvi tahlili ularning nafaqat grammatik strukturalarida, balki sotsiopragmatik kontekstlarda qanday ishlatilishini ochib berdi.

O'zbek tili: "Siz" – rasmiy, hurmat ifodalovchi shakl; yuqori maqomdagi yoki yoshi katta shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

"Sen" – norasmiy, yaqin, teng yoki kichik yoshdagi suhbatdoshga nisbatan ishlatiladi.

Bu farq muloqotning deyarli barcha kontekstlarida aniq belgilangan (Karimova, 2021).

Rus tili: "Вы" – rasmiy, hurmat shakli; ijtimoiy masofa va maqomni ifodalaydi.

"Ты" – norasmiy, yaqin munosabat yoki past ijtimoiy maqomni ko'rsatadi.

Bu tafovut rus tilida sotsiokulturniy norma sifatida qat'iy ishlaydi (Johanson, 2020).

Ingliz tili: "You" – yagona shakl bo'lib, rasmiy va norasmiy kontekstlarda umumiy qo'llanadi. Rasmiylik va hurmat grammatik shakllar orqali emas, balki pragmatik strategiyalar (intonatsiya, kontekst, ehtiyohtor ifodalar) orqali amalga oshiriladi (Gudykunst & Kim, 2017).

2. Madaniy tafovutlar

- O'zbek va rus tillarida rasmiy va norasmiy olmoshlar grammatik jihatdan aniq ajratilgan. Bu madaniyatlarda ijtimoiy masofa va hurmat grammatik

strukturaga singib ketgan (Brown & Levinson, 2020, pp. 70–73).

- Ingliz tilida esa bunday grammatik farqlanish mavjud emas. Buning o'rniga, sotsiopragmatik signallar – yumshoq ifodalar, muloyimlik formulalari, xushmuomalalik markerlari – orqali rasmiylik yoki hurmat darajasi ifodalanadi (Comrie, 2013).

- O'zbek tilida "sizlash" faqat rasmiylik emas, balki hurmat va mehr belgisi sifatida ham ishlatiladi. Bu fenomen rus tilida nisbatan qat'iy rasmiylik doirasida qoladi.

3. Madaniyatlararo muammolar

- Ingliz tilidagi "you" olmoshlarning tarjimasida o'zbek va rus tillaridagi "siz" va "sen/ты" o'rtasidagi tafovut noaniqlik tug'diradi. Bu holat ayniqsa tarjimada yoki til o'rgatuvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi (Tursunov, 2023)

- Ingliz tilidan o'zbek yoki rus tiliga tarjimada muloqotdagi rasmiy yoki norasmiy munosabatlarni to'g'ri aks ettirish talab qilinadi. Aks holda, noto'g'ri qo'llanilgan olmoshlar muloqotda sovuqlik, hurmatsizlik yoki haddan tashqari rasmiylik taassurotini uyg'otishi mumkin.

- Tadqiqot davomida aniqlanishicha, til o'rganuvchilar ko'pincha olmoshlarning pragmatik yuklamasini e'tibordan chetda qoldiradilar. Bu esa madaniyatlararo tushunmovchiliklarga, kommunikativ buzilishlarga sabab bo'ladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, olmoshlarning semantik va sotsiopragmatik yuklamasi nafaqat grammatik

tuzilishga, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy munosabat va kommunikativ kontekstga bevosita bog'liqdir. O'zbek va rus tillarida grammatik rasmiy-norasmiy tafovut aniq aks etgan bo'lsa, ingliz tilida bu tafovut pragmatik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu farqlar madaniyatlararo muloqotda to'g'ri til moslashuvi va tarjima strategiyalarini talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxs olmoshlari, xususan, ikkinchi va uchinchi shaxs olmoshlari til tizimida faqat grammatik birlik sifatida emas, balki sotsiopragmatik, madaniy, va kommunikativ jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Ularning qo'llanishi nafaqat til strukturasi, balki jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy hierarxiya va kommunikativ me'yorlari bilan chambarchas bog'liq.

Qiyosiy tahlil shuni isbotladiki, rus va o'zbek tillarida olmoshlarning rasmiy-norasmiy shakllarining grammatik jihatdan aniq ajralib turishi, ushbu tillarda sotsiokulturniy munosabatlarni aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tilida esa bunday grammatik farqlanish mavjud emas, lekin bu funksiyalar pragmatik vositalar orqali kompensatsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot jarayonida olmoshlarning to'g'ri qo'llanilishi kommunikativ muvaffaqiyat uchun muhim omil ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, tarjima jarayonida yoki til o'rganish mobaynida olmoshlarning sotsiopragmatik yuklamasini hisobga olmaslik madaniy noaniqlik, tushunmovchilik va hatto kommunikativ xatoliklar keltirib chiqarishi.

ADABIYOTLAR

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (2020). *Politeness: Some universals in language usage* (2nd ed.). Cambridge University Press. (pp. 61–85).
2. Comrie, B. (2013). *Language universals and linguistic typology: Syntax and morphology* (2nd ed.). University of Chicago Press. (pp. 145–162).
3. Gudykunst, W. B., & Kim, Y. Y. (2017). *Communicating with strangers: An approach to intercultural communication* (5th ed.). Routledge. (pp. 112–139).
4. Johanson, L. (2020). Pragmatic functions of personal pronouns in Russian in contact situations. *Journal of Slavic Linguistics*, 28(2), 204–219.
5. Karimova, S. N. (2021). The sociopragmatic functions of second person pronouns in Uzbek and English. *Uzbek Journal of Language Studies*, 9(3), 58–74.
6. Tursunov, B. M. (2023). Pragmatic adaptation of third-person pronouns in intercultural communication: A case study of Uzbek and English. *International Journal of Linguistic Research*, 12(1), 95–108.